


**XORAZM VILOYATINING
TASHQI SAVDO AYLANMASI***(2020-yil yanvar-aprel)*

2020-yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 123 048,1 ming. AQSh dollar bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 83,2 % ni tashkil qildi. Shu jumladan, eksport hajmi 44 386,0 ming. AQSh dollari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 89,7 %) va import hajmi 78 662,1 ming. AQSh dollari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 80,0 %) ni tashkil qildi. Tashqi savdo saldosi minus 34 276,1 ming. AQSh dollari.

TASHQI SAVDO AYLANMASI
(ming. AQSh. dollari)

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

dastlabki ma'lumotlar*

HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORT HAJMI
2020-yil yanvar-aprel oylari
(ming. AQSh. dollar)


| Hudud nomi | Eksport | | | ulushi, % da |
|--------------------|-----------------|-----------------|--|-----------------|
| | 2019-yil | 2020-yil | o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da | |
| Viloyat | 49 471,0 | 44 386,0 | 89,7 | 100,0 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | |
| Urganch | 8 003,9 | 5 854,0 | 73,1 | 13,2 |
| Xiva | 2 860,2 | 3 430,9 | 120,0 | 7,7 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Bog'ot | 4 442,8 | 4 693,0 | 105,6 | 10,6 |
| Gurlan | 2 285,1 | 2 151,0 | 94,1 | 4,9 |
| Qo'shko'pir | 1 952,1 | 2 191,5 | 112,3 | 4,9 |
| Urganch | 5 911,8 | 3 712,5 | 62,8 | 8,4 |
| Hazorasp | 1 576,6 | 2 360,9 | 149,7 | 5,3 |
| Xonqa | 3 046,8 | 5 447,6 | 178,8 | 12,3 |
| Xiva | 3 663,0 | 2 746,9 | 75,0 | 6,2 |
| Shovot | 8 867,3 | 4 454,9 | 50,2 | 10,0 |
| Yangiariq | 3 929,1 | 2 043,2 | 52,0 | 4,6 |
| Yangibozor | 2 510,5 | 1 659,6 | 66,1 | 3,7 |

HUDUDLAR BO'YICHA TAQSIMLANMAYDIGAN HAJMNI QO'SHGAN HOLDA

HUDUDLAR KESIMIDA IMPORT HAJMI
2020-yil yanvar-aprel oylari
(ming. AQSh. dollar)

| Hudud nomi | Import | | | ulushi, % da |
|--------------------|-----------------|-----------------|----------------------------|-----------------|
| | 2019-yil | 2020-yil | o'zgarish sur'ati, % da | |
| Viloyat | 98 336,9 | 78 662,1 | 80,0 | 100,0 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | |
| Urganch | 20 016,2 | 21 799,0 | 108,9 | 27,7 |
| Xiva | 2 886,2 | 1 237,6 | 42,9 | 1,6 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Bog'ot | 1 5609,2 | 1 928,1 | 12,4 | 2,5 |
| Gurlan | 3 562,4 | 2 191,0 | 61,5 | 2,8 |
| Qo'shko'pir | 3 293,0 | 1 182,5 | 35,9 | 1,5 |
| Urganch | 8 022,4 | 7 827,6 | 97,6 | 10,0 |
| Hazorasp | 15 584,4 | 29 401,5 | 188,5 | 37,4 |
| Xonqa | 8 961,3 | 3 811,9 | 42,5 | 4,8 |
| Xiva | 1 969,0 | 880,1 | 44,7 | 1,1 |
| Shovot | 5 946,9 | 3 854,8 | 64,8 | 4,9 |
| Yangiariq | 11 521,2 | 4 080,9 | 35,4 | 5,2 |
| Yangibozor | 964,5 | 431,5 | 44,7 | 0,5 |

HUDUDLAR BO'YICHA TAQSIMLANMAYDIGAN HAJMNI QO'SHGAN HOLDA

**TOVAR VA XIZMATLARNING EKSPORT-IMPORT
KO'RSATKICHLARI**
(ming. AQSh. dollari)



2020-yil yanvar-aprel oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning aprel oyidan buyon deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

**VILOYAT TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
YUQORI ULUSHGA EGA DAVLATLAR**
(ming. AQSh. dollari)

| Davlat nomi | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Foizda | |
|----------------------|------------------------|----------|----------|--------|-------------------|
| | | | | ulushi | o'zgarish sur'ati |
| Rossiya | 43 271,5 | 11 084,5 | 32 187,0 | 35,2 | 174,8 |
| Xitoy | 20 760,3 | 3 342,5 | 17 417,8 | 16,9 | 67,2 |
| Turkiya | 13 663,7 | 6 313,5 | 7 350,2 | 11,1 | 84,5 |
| Qirg'iz Respublikasi | 11 461,3 | 11 313,4 | 118,2 | 9,3 | 75,5 |
| Turkmaniston | 3 016,8 | 1 885,3 | 1 131,5 | 2,5 | 70,8 |
| Eron | 1 963,9 | 1 208,1 | 755,8 | 1,6 | 48,2 |


Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 54,1 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 111,7 % ga yetdi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2020-yilning yanvar-aprel oylarida 45,9 % ni hamda joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 64,1 % ni tashkil qildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI MDH DAVLATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (ming. AQSh. dollari)



Viloyatning tashqi savdo aylanmasida joriy yilning yanvar-aprel oylarida MDH davlatlari bilan, 66 514,6 ming. AQSh dollari, boshqa xorijiy davlatlar bilan 56 533,5 ming. AQSh dollari miqdorida eksport va import amaliyotlari bajarildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING YANVAR-APREL OYLARIDAGI ULUSH DINAMIKASI




Tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlari ulushi 54,1 % ni, boshqa xorijiy davlatlarning ulushi esa 45,9 % (o'tgan yilning shu davrida MDH davlatlari ulushi 40,3 % ni, boshqa xorijiy davlatlarning ulushi esa 59,7 %) ni tashkil qilgan.









Eksport tarkibida MDH davlatlari ulushi 66,8 % ni, boshqa xorijiy davlatlarning ulushi esa 33,2 % (o'tgan yilning shu davrida MDH davlatlari ulushi 77,1 % ni, boshqa xorijiy davlatlarning ulushi esa 22,9 %) ni tashkil qilgan.

Import tarkibida MDH davlatlari ulushi 46,9 % ni, boshqa xorijiy davlatlarning ulushi esa 53,1 % (o'tgan yilning shu davrida MDH davlatlari ulushi 21,7 % ni, boshqa xorijiy davlatlarning ulushi esa 78,3 %) ni tashkil qilgan.

TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(ming. AQSh. dollari)




| | |
|--|--|
|  Paxta tolasi |  Qora va rangli metallar |
|  Oziq-ovqat mahsulotlari |  Mashina va asbob-uskunalar |
|  Kimyo mahsulotlari va buyumlari |  Xizmatlar |
|  Energiya manbaalari va neft mahsulotlari |  Boshqalar |

2020-yil yanvar-aprel oylariga eksport tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari hajmi 8 391,9 ming. AQSh dollari (o'tgan yilning shu davrida 28 736,7 ming. AQSh dollari) ni tashkil qilib, 20 344,8 ming. AQSh dollariga, xizmatlar sohasidagi eksport hajmi 3 166,2 ming. AQSH dollari (o'tgan yilning shu davrida 4 418,1 ming. AQSh dollari) ni tashkil qilib, 1 251,9 ming. AQSh dollariga kamayganligini kuzatishimiz mumkin.

TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTNING O'SISH SUR'ATLARI DINAMIKASI

(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2020-yilning yanvar-aprel oylarida eksport qilingan tovar va xizmatlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan 89,7 % ni tashkil qildi.

EKSPORT TARKIBI


| | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---------------------------------|--------------------|---|------------------------------|--------------------|---|------------------------------|--------------------|---|------------------------------|
| | Ming. AQSh dollari | o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | Ming. AQSh dollari | o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | Ming. AQSh dollari | o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da |
| Eksport | 44 386,0 | 89,7 | 100,0 | 29 654,7 | 77,7 | 100,0 | 14 731,3 | 130,3 | 100,0 |
| Paxta tolasi | 3 046,0 | 132,6 | 6,9 | - | - | - | 3 046,2 | 142,8 | 20,7 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 8 391,9 | 29,2 | 18,9 | 6 513,1 | 26,1 | 22,0 | 1 878,8 | 49,7 | 12,8 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 223,6 | 83,5 | 0,5 | 223,6 | 157,6 | 0,8 | - | - | - |
| Qora va rangli metallar | 497,0 | 414,2 m. | 1,1 | 497,0 | 414,2 m. | 1,7 | - | - | - |
| Mashina va asbob - uskunalar | 89,1 | 15,9 m. | 0,2 | 89,1 | 15,9 m. | 0,3 | - | - | - |
| Xizmatlar | 3 166,2 | 71,7 | 7,1 | 2 386,7 | 62,6 | 8,0 | 779,5 | 129,4 | 5,3 |
| Boshqalar | 28 972,0 | 2,2 m. | 65,3 | 19 945,2 | 2,3 m. | 67,2 | 9 026,8 | 193,7 | 61,2 |

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning fevral oyi davomida eng yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI DINAMIKASI
(ming. AQSh. dollari)


TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI


(ming. AQSh. dollari)



2020-yil yanvar-aprel xolatiga import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari hajmi 30 673,9 ming. AQSh dollari (o'tgan yilning shu davrida 4 591,3 ming. AQSh dollari) ni tashkil qilib, 26 082,6 ming. AQSh dollariga, ko'payganligini kuzatishimiz mumkin.

TOVARLAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'SISH SUR'ATLARI DINAMIKASI

(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2020-yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovar va xizmatlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan 80,0 % ni tashkil qildi.


IMPORT TARKIBI

| | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|--|--------------------|---|------------------------------|--------------------|---|------------------------------|--------------------|---|------------------------------|
| | Ming. AQSh dollari | o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | Ming. AQSh dollari | o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | Ming. AQSh dollari | o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da |
| Import | 78 662,1 | 80,0 | 100,0 | 36 860,0 | 172,3 | 100,0 | 41 802,1 | 54,3 | 100,0 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 30 673,9 | 6,7 m. | 39,0 | 23 510,7 | 6,3 m. | 63,8 | 7 163,2 | 8,3 m. | 17,1 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 4 047,3 | 96,3 | 5,1 | 1 113,3 | 46,6 | 3,0 | 2 934,0 | 161,7 | 7,0 |
| Energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 431,9 | 4,0 m. | 0,5 | 398,0 | 3,8 m. | 1,1 | 33,9 | 11,7 m. | 0,1 |
| Qora va rangli metallar | 1 701,8 | 94,9 | 2,2 | 326,8 | 60,4 | 0,9 | 1 375,0 | 109,8 | 3,3 |
| Mashina va asbob-uskunalar | 22 327,0 | 39,5 | 28,4 | 2 287,8 | 155,7 | 6,2 | 20 039,2 | 36,4 | 47,9 |
| Boshqalar | 19 480,2 | 62,5 | 24,8 | 9 223,4 | 70,1 | 25,0 | 10 256,8 | 56,9 | 24,5 |


Import tahliliga ko'ra, 2020-yil yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19 674,8 ming. AQSh dollariga kamaydi va 78 662,1 ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDA YIRIK HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI**

**2019-YIL
YANVAR-APREL**



**2020-YIL
YANVAR-APREL**



2020-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatga 41 ta xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Braziliya, Hindiston va Latviya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 67 848,1 ming. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 86,3 % ni tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: (62) 224-65-09